

KICHIK BIZNES SUB'YEKTLARI RIVOJLANISHINING USTUVOR YO'NALISHLARI

Rizayeva Nilufar Oblakulovna

TDIU “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o’qituvchisi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi MBA Kichik biznes va tadbirkorlik yo’nalishi tinglovchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub/yektlarini rivojlantirish yo’nalishlariularni milliy iqtisodiyotdagi o’rni va axamiyati iqtisodiy ko’rsatkichlar orqali yoritilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub/yektalrini bozor muhitiga moslasha olishi, bandlikni ta’minalash, daromadlarni shakllantirish va shu orqali uning tengsizligini yumshatish hamda o’rta mulkdorlar qatlamini qaror toptirishdagi afzalliklari ochib berilgan.

Kalit so’zlar: kichik biznes, kichik biznes sub’yektalri, o’sish strategiyasi, yuqori kredit stavkasi, yuqori soliqlar, texnologiyalar va uskunalar haqida ma’lumotdan foydalanish imkoniyati

Kirish. Kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligini oshirish, mulkdorlarning o’rta sinfini shakllantirish, ichki bozorni sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar bilan to’ldirish, yangi ish o’rinlarini yaratish va shu bilan birgalikda aholi daromadlarini oshirishning muhim omili va mamlakat taraqqiyoti yo’lidagi faol harakatlanuvchi kuch hisoblanadi.

O’zbekistonda ham bu borada talaygina ishlar qilinmoqda. Yurtimiz hududida qulay tadbirkorlik muhitini yaratish, xususiy mulkchilikning ustuvorligini mustahkamlashga yo’naltirilgan qonun hujjatlarini takomillashtirish va bu borada ishonchli kafolatlarni ta’minalash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka ko’proq erkinlik berish, davlatning boshqaruv funksiyalari va ruxsat beruvchi normalarini qisqartirish, byurokratik to’siq va g’ovlarni olib tashlash, kichik biznes sub’yektlarining moliya-kredit va xom-ashyo resurslaridan, ular ishlab chiqaradigan mahsulotlarga davlat buyurtmalari berilishidan keng foydalanishni ta’minalaydigan bozor vositalari va mexanizmlarini tadbiq etish kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo’l ochish chora-tadbirlari sifatida amalga oshirib kelonmoqda. Kichik biznes va tadbirkoprlikni rivojlantirishning asosiy sabablaridan biri aholi sonini muttasil ravishda o’sib borishi va ularni ish bilan bandligini ta’minalashdir

Bu borada yurtboshimiz ta’kidlab o’tganlaridek: “Bizning bosh vazifamiz – tadbirkorlikni rivojlantirishni rag’batlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratishni ta’minalashdir. Biznes bilan shug’ullanayotgan har kishida davlat tomonidan qo’llab-quvvatlanishiga astoydil ishonch bo’lishi shart. Odamlar biznes bilan


shug‘ullanishdan manfaatdor bo‘lishi zarur. Tadbirkor va xalq boy bo‘lsa – mamlakat ham boy bo‘ladi”.

Metodlar. So’nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va biznesni yuritish uchun qulay muhit yaratish, tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash sohasida keng ko’lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ruxsat beruvchi hujjatlarni olish tartibi sezilarli darajada soddalashtirildi, tadbirkorlik sub’yektlarining moliyaviy-xo’jalik faoliyati bilan bog’liq chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.


Kichik biznes mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarida ham eng muhim sohaga aylanib bormoqda. Qishloq xo‘jaligi, savdo, maishiy xizmat ko‘rsatish, ovqatlanish, mehmonxona va turizm faoliyatlarida kichik biznesning salmog‘i juda kattadir. Keyingi paytlarda sanoatda tarmoqlarida modernizatsiya, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan o‘zgartirish, sanoatda chuqur tarkibiy o‘zgartirishlar va diversifikatsiyani amalga oshirilishi natijasida qishloq joylarda ham sanoat tarmoqlari rivojlanib bormoqda. Bunda esa kichik biznes asosiy yetkachilardan hisoblanadi. Sanoat ishlab chiqarishda ham kichik biznesning ulushi yildan-yilga oshib bormoqda. Kichik biznes mamlakatning iqtisodiy salohiyatini ko‘tarishi, davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishi va gullab-yashnashining o‘lchovi bo‘lganligi uchun O‘zbekistonda ham kichik biznesning rivojlanishini rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Respublikamizda kichik biznesni rivojlantirish bugungi kunning asosiy ustivor vazifasidir. Kichik biznesga bo‘lgan e’tiborning iqtisodiy sabablari:

- 1) ichki bozorni mahalliy tovar va xizmatlar bilan to‘ldirish;
- 2) aholining harid qobiliyatini oshirish;
- 3) mamlakatning eksport salohiyatini yuksaltirish;
- 4) ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish;
- 5) servis xizmatlari ko‘rsatishni rivojlantirish;
- 6) yirik korxonalarini butlovchi detallar va qismlar bilan ta’minlash;
- 7) raqobat muhitini vujudga keltirish;
- 8) mamlakat ichida kapitalning aylanuvchanligini ta’minlash kabilari.

Haqiqatdan ham kichik biznes sub’ektlari ichki bozorni mahalliy tovar va xizmatlar bilan to‘ldirayotgan, yirik korxonalarini butlovchi detallar va qismlar bilan ta’minlayotgan va mamlakat eksport salohiyatini oshirayotgan sohaga aylanib bormoqda. Buni mamlakat eksport salohiyatidagi o‘rnini oshib borayotganidan ham ko‘rish mumkin. Kichik biznesning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi o‘rni ham asta-sekin kengayib bormoqda. Uning eksport hajmidagi ulushi 2021 yilda 22,3 foizni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2010 yilga nisbatan 8,6 foizga oshgan



Manba: O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari
1-rasm. Kichik biznesning 2010-2021 yillarda mamlakat eksportidagi ulushi, %



Manba: O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari
2-rasm. Kichik biznesning 2010-2021 yillarda mamlakat sanoatida ulushi,%

Natijalar. Yurtimizda kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha to‘plangan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, korxonalarning raqobatdoshlik darajasini oshirish ularning o‘z faoliyatlari davomida kengayib, yiriklashib borishini taqozo etadi. Lekin, kichik biznes sub’ektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida belgilangan imtiyoz va yengiliklarga ega bo‘lish imkonini beruvchi korxonalarning miqdoriy chegaralari ayrim hollarda ushbu jarayonlarga to‘sinqinlik qilishi mumkin. O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining yuksalishi, kichik biznes sub’ektlari uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar natijasida

iqtisodiy salohiyati ortgan ko‘plab korxonalar mazkur imtiyozlardan foydalanishni davom ettirish maqsadida o‘z xodimlari sonini belgilangan miqdoriy chegara doirasida saqlab qolishga harakat qilmoqdalar. Bu esa, ularning yiriklashish jarayoniga to‘sinqilik qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes sub’ektlari rivojlanishi mustaqillikka erishilgan davrdan boshlab hozirgi kungacha ma’lum bosqichlarni bosib o’tdi. Salkam 30 yil davomida kichik biznes sub’ektlari rivojlanishi borasida bir qator me’yoriy hujjatlar, huquqiy asoslar yaratildi.

Xususan, mustaqillik yillarda O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotining asosi bo‘lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratilganini qayd etish zarur. O‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo‘yicha qulay ishbilarmonlik muhitni hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi.

Natijada so‘nggi o‘n yilda yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes ulushi 31,1 foizdan 52,5 foizga o‘sdi, ushbu sohada bandlik darajasi iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band aholi umumiyligi sonining 49,7 foizidan 74,5 foizigacha oshdi. Aholi daromadlarining 47 foizdan ziyodi tadbirkorlik faoliyatidan tushgan daromadlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturiga muvofiq, joriy yilda tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlantirish uchun yanada qulay biznes muhitni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar qabul qilindi.

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va ularni muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash tartibi sezilarli darajada soddalashtirildi hamda bu jarayon yanada ochiqlik kasb etdi. Ro‘yxatga olish uchun davlat boji stavkasi ikki barobarga qisqartirildi. Ishchilarning yillik o‘rtacha soni 100 kishigacha ko‘paytirilgan kichik korxonalar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxati sezilarli darajada kengaytirildi. Kichik biznes subyektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng miqyosda jalb qilish mexanizmi ishlab chiqildi va joriy etildi.

Davlat va nazorat idoralarining korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga aralashuvini keskin kamaytirish hamda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy erkinligi va huquqlarini sezilarli ravishda kengaytirish bo‘yicha choralar qabul qilindi. Yangi tashkil qilingan kichik korxonalar va mikrofirmalarni rejali soliq tekshiruvlaridan ozod etish muddati ikki yildan uch yilga uzaytirildi. Soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘layotgan, shuningdek, ishlab chiqarishning barqaror o‘sish sur’atlari va rentabelligini ta’minlayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarida uch yil davomida soliq tekshiruvlarini o‘tkazish taqiqlandi.

Tijorat banklarining kapitallashuv darajasi oshmoqda, kichik biznes

subyektlarini, ayniqsa, ularning yuqori texnologik uskunalar xarid qilishi uchun imtiyozli kreditlash mexanizmi takomillashtirildi.

Xulosa. Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan, tadbirkorlik faoliyatini erkinligini cheklayotgan bir qator muammolar hal etilmay qolmoqda.(8)

Tadbirkorlik subyektlarining davlat, soliq va nazorat idoralari, tijorat banklari bilan o'zaro munosabatlarini aniq belgilab beradigan ma'muriy reglament to'liq ishlab chiqilmagan. Ochiqligi ta'minlanmagan ko'plab ruxsat berish tartiblari hamon saqlanib qolmoqda. Nazorat idoralarining tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga noqonuniy aralashish holatlari uchramoqda. Kichik biznes mahsulotlarini hududiy va jahon bozorlariga olib chiqish bo'yicha amaliy mexanizm yaratilmagan.

Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash, bozor islohotlarini liberallashtirish va chuqurlashtirish yo'lidan jadal harakat qilish, tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini ta'minlash maqsadida:

- Quyidagilar Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, shahar va tumanlar hokimliklarining muhim vazifalari deb hisoblansin:

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi ortiqcha byurokratik to'siq va g'ovlarga barham berish, davlat boshqaruvi funksiyalarini qisqartirish va tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish, davlat boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshirilayotgan turli ruxsat berish me'yordi hamda cheklash tartiblarini keskin qisqartirish;

tadbirkorlik faoliyatini subyektlarining davlat boshqaruvi idoralari, soliq va nazorat tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlarida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, hisobotlar tizimi hamda moliya, soliq va statistika idoralariga hisobotlarni topshirish mexanizmini ularni elektron tizim bo'yicha taqdim etishga bosqichma-bosqich o'tish orqali tubdan soddalashtirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga soliq, bojxona hamda boshqa to'lovlar bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishga ko'maklashadigan qo'shimcha imtiyoz hamda preferensiylar berish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tijorat banklari bilan o'zaro hamkorlik mexanizmini yanada takomillashtirish va soddalashtirish, tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, ularga ajratilayotgan kreditlar, birinchi navbatda, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilishga va texnologik

yangilashga yo‘naltiriladigan uzoq muddatli kreditlar hajmini ko‘paytirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatda keng ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqishga ko‘maklashish, eksport shartnomalarini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonini hamda umuman bojxona ma’muriyatchiligin soddalashtirish va liberallashtirish.

2. Belgilansinki, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining barcha darajadagi davlat boshqaruvi idoralari, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, tijorat banklari bilan o‘zaro munosabatlarda tadbirkorlar huquqlari ustuvorligi prinsipiga amal qilinadi, ya’ni unga muvofiq, me’yoriy-huquqiy hujjatlardagi bartaraf etib bo‘lmaydigan barcha ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlar foydasiga talqin etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Adliya vazirligi, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda amaldagi qonun hujjatlariga ularda tadbirkorlar huquqlari ustuvorligi prinsipini belgilashni ko‘zda tutuvchi o‘zgartish hamda qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risidagi takliflarni puxta ishlab chiqsin va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga taqdim etsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 24.08.2011 yildagi PF-4354-son
2. .O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi. Toshkent shahri, 2016-yil 24-novabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022- 2026 yillarga mo’ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni// www.lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 24 yanvardagi “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperasiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-99-son Qarori// www.lex.uz
5. Abdullajanovich, U.T. (2022, March). THE ROLE OF INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY. *In Conference Zone* (pp. 271-276).
6. Shodiyeva, G., Tog’Ayeva, D. A., & Sultonov, B. A. (2022). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRLIKNI IQTISODIYOTDA TUTGAN O‘RNI. *Academic research in educational sciences*, 3(5), 610-613.

7. Muhammadjonov B. B., Rustamov D.S., KICHIK BIZNES SUB'YEKTLARINI RIVOJLANISH MASALALARI ./JOURNAL OF MARKETING, BUSINESS AND MANAGEMENT(JMBM)/SJIF FACTOR: 5.57
8. Xalilov N. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI./ JOURNAL OF MARKETING, BUSINESS AND MANAGEMENT(JMBM)/SJIF FACTOR: 5.57
9. Kholmamatov Diyor Haqberdievich. Development of Customer Service Delivery System in Wholesale Trade. Indonesian Journal of Law and Economics Review, 2019
10. www.stat.uz